

CHO'LPON HIKOYALARIDA QO'LLANGAN O'ZLASHMA LEKSEMALAR

Kabuljonova Gulbaxor Komiljonovna

Qo'qon universiteti Andijon filiali

O'zbek va rus filologiyasi kafedrası v.b.professori, filologiya fanlari nomzodi

Ne'matullayeva Moxlaroy Ulug'bek qizi

Qo'qon universiteti Andijon filiali, 2-bosqich talabasi

kabulzonovagulbahor@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Cho'lpon hikoyalarida qo'llangan o'zlashma so'zlarning matnda ifodalangan uslubiy xususiyatlari haqida fikr yuritiladi. Xususan, muallif yashagan davr tilida va uning asarlarida qo'llangan arabcha, forsha-tojikcha, ruscha o'zlashma leksemalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: leksema, o'z qatlam, o'zlashgan qatlam, uslubiy bo'yoq, arabcha, ruscha, forsha o'zlashmalar.

Abstract: This article discusses the stylistic features expressed in the text through borrowed words used in the stories of Cholpon. In particular, Arabic, Persian-Tajik, and Russian loanwords used in the language of the period in which the author lived and in his works are analyzed.

Keywords: lexeme, native lexical layer, borrowed lexical layer, stylistic coloring, Arabic borrowings, Russian borrowings, Persian borrowings.

Аннотация: В данной статье рассматриваются стилистические особенности, выраженные в тексте заимствованными словами, использованными в рассказах Чулпана. В частности, анализируются арабские, персидско-таджикские и русские заимствованные лексемы, употреблённые в языке эпохи, в которой жил автор, а также в его произведениях.

Ключевые слова: лексема, исконный (собственный) лексический слой, заимствованный лексический слой, стилистическая окраска, арабские заимствования, русские заимствования, персидские заимствования.

O'zining uzoq yillik tarixiga ega bo'lgan o'zbek adabiyoti taraqqiyotida jadidlar davri adabiyotining beqiyos xizmati bor. Ushbu davr adabiyoti vakillari xalqni jaholat botqog'idan qutqara oladigan, unga qarshi munosib kurasha oladigan najot vositasini ma'rifatda ko'rganlar. Obraz yaratishda qanday vositadan foydalanish, so'z tanlash mutlaqo erkinlik kasb etadi. Shuning uchun muallif mahoratini baholashda u yaratgan asarlarning o'zi bilan tanishib chiqishgina kifoya qiladi. "Rangsiz tasviriy san'at, ohangsiz musiqa bo'lmaganidek, tilsiz adabiyot ham bo'lmaydi. Adabiyotni insonshunoslik deydilar. Darhaqiqat, yozuvchi xilma-xil insoniy xarakterlarni tadqiq qilib, jamiyat rivojiga yordam beradigan salmoqli haqiqatlarni kashf qiladi. Biroq bularning hammasi adabiyotda til orqali ro'yobga chiqariladi"[1]. Badiiy adabiyot universal bilish vositasi – so'z bilan obraz yaratadi.

Ma'lumki, XX asrning 20- yillari o'zbek tili taraqqiyotida muhim bir bosqich sanaladi. Ya'ni bu davrga kelib, A.Navoiy an'analariga asoslangan mumtoz adabiy tilni xalq jonli so'zlashuv tiliga yaqinlashtirish harakati kuchayadi. Shuningdek, XX asr boshlarida o'zbek adabiy tili leksikasi hamda terminologiyasida ruscha, forsha va arabcha so'z shakllardan foydalanilgan [2.317]. Ushbu jarayonda A. Fitrat, Behbudiy, A. Avloniy va boshqa ma'rifatparvarlar qatorida Abdulhamid Cho'lpon ham alohida

o'rin tutadi. Cho'lpon o'z asarlari bilan nafaqat o'zbek adabiyoti rivojiga, balki o'zbek adabiy tilining mazkur davrdagi taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Bu kunga qadar adib asarlari tili yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borildi va olib borilmoqda.

Cho'lpon asarlari lug'at tarkibining asosiy boyish manbalari bu, birinchidan, umumxalq o'zbek tili lesikasi (xalq so'zlashuv tili elementlari, shevaga xos so'zlar va boshq.) va, ikkinchidan, boshqa tillardan olib o'zlashtirilgan so'zlar tashkil qilishini ko'rsatadi[3.41]. Cho'lpon til sofligi, soddaligi, xalqona uslub uchun kurashgan bo'lsa-da, lekin davr taqozosi bilan uning asarlarida o'zlashma so'zlar ham qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Xususan, adib hikoyalari tilining lug'aviy tarkibi o'ziga xos va murakkab bo'lib, unda o'z qatlamga mansub umumturkiy leksik birliklar, shuningdek, boshqa tillardan, ya'ni rus, arab, fors – tojik tillaridan o'zlashgan ko'plab o'zlashma so'zlar uchraydi. Buning asosiy sababi shuki, tilimiz bir necha asrlik tarixiy taraqqiyot davrlardan buyon turli ijtimoiy omillar ta'sirida takomillashib, leksik jihatdan boyib borganligidan dalolat beradi. Xususan, adibimiz Cho'lponning kichik nasriy asarlari sanalgan hikoyalarni o'qir ekanmiz, unda arab, rus va fors-tojik tillaridan kirgan o'zlashma leksik birliklar qo'llanganligini ko'ramiz. Ularlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Arabcha o'zlashmalar. Arabcha o'zlashmalar tilimiz tarkibida juda ko'plab uchraydi. Ular, asosan, din, ta'lim-tarbiya, axloq-odob, davlat boshqaruvi tizimi kabi sohalarga oidligi bilan xarakterlanadi.

a) ot so'z turkumiga oid so'zlar: *mo'min, so'fi, savob, fotiha, sabr, g'aflat, kofir, hukm, islom, ahkom, musulmon, janoza, zikr, tasbeh, qiyomat, duo, hadya, volida, xabar, hayvon, maktab, madrasa, ahvol, maslahat, Ahmad, varaq, kitob, sihat, jaholat, ilm, hunar, maishat, madaniyat, funun, odam, taqsir, mol, haqiqat, mashaqqat, muallim, ishorat, kamol, ta'zim, fahsh, rayosat, mutolaa, hukumat, urfon, mahramlik, jamiyat, vasiyat, asbob, ma'rifat, sohib, hol, vijdon, tahmil, qavm, mushovara, asr, ma'mur, sarf, itob, davr, vido, xayriyat, mudir, me'mor, sharq, din, majlis, a'zo, vaqt, ehtimom, muharrir, imtihon, tabib, dars, muhabbat, juz, Xadicha, Qodir, qadr, qassob, Abdulla, jallob, Sharofat, hofiz, dunyo, xalq* kabilar ;

b) sifat so'z turkumiga oid so'zlar: *ma'lum, mashg'ul, kabiha, muftalo, mashhur, mukammal, mahrum, mo'tabar, xarom, ziyoda, majruh, yetim, mahzun, dahshatli, muqaddas, ajib, muhtaram, mazkur, mohirona, ziyoli, ma'naviy, latif, taraqqiy* kabilar.

2. Fors – tojikcha o'zlashmalar: *mehmon, hafta, foyda, durust, bechora, betob, nodon, bebahra, kasb, do'kon badbaxt, namoz, manzara, go'sha, xushyoqmas, baxtiyor, do'st, shogird, hayot, hanuz, poytaxt, daraxt, baland, so'ri, go'riston, mozor, xufton, joynamoz, bomdod, mehrob, taxt, baquvvat.*

3. Ruscha o'zlashmalar: *zakunchi, do'xtur, zemlamer, gazita, iskamiya, yevrupo, pristuf, uezd, ofitser, vagzal, magazin, kartina, karta, politsa, istansa, poyezd, bilet, zuvano'k, klass, balko'n, iona, no'mir, leksiya, teatr, gimnaziya, medal, ro'mon, jurnal, rasxo'd, sho'ba, paraxo'd, iskala, vago'n, kando'htir, injener, metropo'l, neft, fayto'n.*

Bundan tashqari, umumturkiy qatlamga mansub va hozirda ayrim fonetik o'zgachaliklar bilan farqlanuvchi *orqadosh, qardosh, chechak, yoziq* singari so'zlar ham uchraydi. Hikoyalar tilida uchraydigan o'zlashma so'zlar tahlilidan chiqarilgan xulosalar shuni ko'rsatadiki, o'zlashma so'zlarning ko'p qismini arabizmlar tashkil qiladi. So'zlar adib yashab ijod qilgan davrda o'zbek tilining fonetik – fonologik tizimiga xoslangan tarzda talaffuz qilingan va hikoyalarga ham shunday tarzda olib kirilgan. O'zlashma so'zlar bilan birga o'zbek tilida muqobili mavjud bo'lgan so'zlar

o'zni bilan almashinib qo'llangan va noo'rin takrorlarning oldini olishga xizmat qilgan:
go'sha – joy – uy.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Sharafiddinov. O. Adabiyot tildan boshlanadi. //O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1986, 5-sentabr.
2. Abdurasulov B.B. O'zbek tili tarixi.Darslik. –Toshkent: “Tafakkur avlod”, 2023.329 b.
3. Неъматова Д.Чўлпон публицистик асарларининг лингвистик таҳлили. Monografiya.- Toshkent:” Turon zamin ziyo”, 2016.127 б.
4. She'rlar, hikoyalar, she'riy va nasriy tarjimalar.[Matn]. Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon / Nashrga tayyorlovchilar: Iskandar Madg'oziyev, Sohibaxon Islomova. – Toshkent : “ Zabarjad Media ”, 2022